O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

ZAMONAVIY ILM-FAN, TA‘LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING DOLZARB MASALALARI TALABA YOSHLAR NIGOHIDA

III RESPUBLIKA AN'ANAVIY TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

TO‘PLAMI

2026-yil 25-26-mart



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ZAMONAVIY ILM-FAN, TA’LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING DOLZARB MASALALARI TALABA YOSHLAR NIGOHIDA

III respublika an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

1-sho‘ba: Zamonaviy ilm-fanning fundamental muammolari va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar

2026-yil 25-26-mart

TOSHKENT

“Zamonaviy ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasining dolzarb masalalari talaba yoshlar nigohida” III respublika an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 1-sho‘ba: Zamonaviy ilm-fanning fundamental muammolari va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O‘RJXU, 2026-yil 467 b.

Ushbu to‘plam “Zamonaviy ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasining dolzarb masalalari talaba yoshlar nigohida” mavzusidagi konferensiyaga respublika talabalaridan kelgan maqolalar asosida tayyorlangan bo‘lib, unda talabalarning ilm-fan sohasidagi dolzarb mavzular yuzasidan maqolalari, taklif va tashabbuslari o‘rin olgan.

Bu galgi anjuman 6 ta sho‘ba bo‘yicha tashkil etilib, anjumanga respublikamizning 90 ga yaqin OTMlaridan 500ga yaqin maqolalar kelib tushgan.

Anjuman yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb etish maqsadida o‘tkazilib, unda ayniqsa, huquqshunoslik, iqtisodiyot va psixologiya sohasidagi ilmiy va innovatsion tadqiqotlarga ustuvorlik berilgan.

Anjuman materiallari tadiqotchilar va boshqa qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: **Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich**
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Tahrir hay’ati: **Mirzayev G‘ulom Mirzayevich,**
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Qurbonov Baxromjon Baxtiyor o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026

moliyalashtiriladi: federal, shtat va mahaliy hukumatlar.AQSH maktabgach ta’lim tizimi har qanday rivojlanish darajasidagi bolalar uchun ta’lim olish uchun sharoit yaratish bilan tavsiflanadi. Oddiy bolalar rivojlanishda qandaydir buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan birga o‘qiydilar. Ayni paytda maktabgacha ta’lim muassasalarida ularni qulay dam olishlari uchun barcha sharoit yaratilga. Maktabgacha ta’lim pullik. AQSHning barcha shtatlarida shtatga qarab besh yoki sakkiz yoshdan o‘n olti yoki o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun majburiy ta’lim qonunlari mavjud.10

Taxminan 5 yoshda amerikalik bolalar boshlang‘ich maktabga boradilar (ingilizcha: *elementary school*). Boshlang‘ich maktab beshinchi yoki oltinchi sinfgacha davom etadi (maktab okrugiga qarab), undan keyin o‘quvchi o‘rta maktabga boradi (ingilizcha: *middle school* yoki *o‘rta maktab*), mos ravishda sakkizinchi yoki to‘qqizinchi sinf bilan tugaydi.11

Boshlang‘ich ta’lim asosiy akademik ta’lim va ijtimoiylashuv ko‘nikmalariga e’tiborini qaratadi, bolalarni hayotga ayniqsa o‘rta maktabda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan keng ko‘lamli bilim, ko‘nikmalarga (jumladan xulq-atvor va muloqotga jalb qiladi)12

Bizni davlatda ham bola ilk bor maktabga qadamini qo‘yar ekan, ustozdan muloqot madaniyatini ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini o‘rganadi Bularni o‘rgatishda pedagogdan kuchli mahorat talab etiladi. Xalqimizda bir naql bor “Ustoz-otadek ulug‘ ” bundan ko‘rinib turibdiki ota-ona uyda farzandalariga tarbiya berar ekan ta’lim muassasasida ham pedagog ta’lim bilan birgalikda tarbiya ham beradi.Har qanday ta’lim avvalo tarbiyaning ustiga quriladi. Shunday ekan biz rivojlangan mamlakatlardagi ta’lim tizimiga o‘tishimiz uchun avvalom bor bizning qadriyatlarimizga an’analarimizga mos kelishi kerak. Shunda yurtimizda ta’lim sifati oshib, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari va kadrlari yetishib chiqadi.

Yana rivojlangan davlatlardan Rossiya Federatsiyasi ta’lim tizimi haqida gapiradigan bo‘lsak, ta’lim tizimi federal va markazlashtirilgan. Rossiyadagi maktabgacha ta’lim muasssalari (bolalar bog‘chasi, прогимназия, bolalar rivojlanish markazi va boshqalar) oilalarga 1 yoshdan oltiyoshgacha bo‘lgan bolalarni tarbiyalashga yordam berish uchun yaratilgan.Maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’lim va tarbiya boshlang‘ich ta’limning tayyorgarlik

10 M. Toshev, N. Turg’unboyeva, G. To’laganova. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi. Toshkent-2023 7-bet.

11 M. Toshev, N. Turg’unboyeva, G. To’laganova. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi. Toshkent-2023 8-bet.

12 M. Toshev, N. Turg’unboyeva, G. To’laganova. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi. Toshkent-2023 10-bet.

bosqichidir. Rossiya Federatsiyasida umumiy ta’limning quydagi darajalari belgilanadi.

1) maktabgacha ta’lim
2) o‘rta umumiy ta’lim

Rossiya Federatsiyasida kasbiy ta’limning quydagi darajalari belgilanadi.

1) oliy ta’lim - mutaxassislik, magistratura:
2) oliy ta’lim - yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

Qo‘shimcha ta’lim bolalar va kattalar uchun, qo‘shimcha ta’lim va qo‘shimcha kasbiy ta’lim kabi kichik tiplarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan ta’lim tizimi zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda tashkil etilgan bo‘lib, yosh avlodni bilimli, mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuning uchun ta’lim tizimini takomillshtirib boorish, innovatsion usullarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. SHavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T-2022.
2. SHavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. T-2023
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik - T.: SANO-STANDART. 2017
4. M. Toshev, N. Turg‘unboyeva, G. To‘laganova. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi. Toshkent-2023
5. https://world.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA NEYRO O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xikmatova Shohida Xikmatovna
Oriental Universiteti
Uzluksiz ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
khikmatovashokhida@gmail.com **+998946118429**
Xashimova O‘g‘iloy Erkin qizi
Oriental Universiteti studenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bosh miya yarimsharlararo o‘zaro ta’sirining ahamiyati va neyropsixologik yondashuv asosida neyro o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi yoritib berilgan. Neyro o‘yinlarning bolalarda nutq rivojlanishi, diqqat, xotira, tafakkur kabi psixik jarayonlarni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, neyro o‘yinlar orqali miya

yarimsharlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni rivojlantirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: neyro o‘yinlar, yarimsharlararo o‘zaro ta’sir, neyropsixologiya, maktabgacha ta’lim, nutq rivojlanishi, kognitiv jarayonlar, bolalar rivojlanishi.

Abstract

This article discusses the importance of interhemispheric interaction in the development of preschool children and the effectiveness of using neurogames based on a neuropsychological approach. The role of neurogames in developing children's speech, attention, memory, and thinking is analyzed. The possibilities of strengthening interhemispheric connections through neurogames are also considered.

Keywords: neurogames, interhemispheric interaction, neuropsychology, preschool education, speech development, cognitive processes, child development.

Kirish

Maktabgacha yosh davri bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning nutqi, tafakkuri, xotirasi va diqqat kabi asosiy ruhiy jarayonlari shakllanadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida neyropsixologik yondoshuv keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondoshuv miya faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarning psixik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning kognitiv rivojlanishi ko‘p jihatdan miya yarimsharlari orasidagi o‘zaro aloqalarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq.

Bosh miya yarimsharlararo o‘zaro ta’siri – bu chap va o‘ng miya yarimsharlarining yagona integrativ tizim sifatida ishlashini ta’minlovchi muhim mexanizmdir. Ushbu mexanizm bolalarning nutq rivojlanishi, bilish faoliyati va harakat koordinatsiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Neyropsixologiya fanining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan olimlardan biri A.R.Luriya bo‘lib, u inson psixikasining rivojlanishida miya tuzilmalari faoliyatining muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Uning fikricha, oliy psixik funksiyalar oddiy motor va sensor jarayonlar asosida shakllanadi.

Chap miya yarimshari ko‘proq mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, nutq faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘ng yarimshar tasavvur, obrazli fikrlash va emotsional jarayonlar

bilan bog‘liq hisoblanadi. Bosh miya yarimsharlari o‘zaro hamkorlikda ishlagandagina bolaning intellektual rivojlanishi yanada samarali bo‘ladi.

Bolalarda yarimsharlararo aloqalar yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- nutq rivojlanishining kechikishi;
- diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar;
- o‘qish va yozishdagi muammolar;
- harakat koordinatsiyasining sust rivojlanishi.

Shu sababli maktabgacha yosh davridayoq bosh miya yarimsharlararo bog‘lanishlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Neyro o‘yinlarning pedagogik ahamiyati

Neyro o‘yinlar – bu tanaga yo‘naltirilgan mashqlar va o‘yinlar majmuasi bo‘lib, ular orqali miya faoliyatini faollashtirish mumkin. Ushbu mashqlar bolaning harakat faoliyati orqali miya yarimsharlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Neyro o‘yinlarning asosiy maqsadi:

- yangi neyron bog‘lanishlarni shakllantirish;
- yarimsharlararo o‘zaro ta’sirni kuchaytirish;
- bolalarning psixik jarayonlarini rivojlantirish.

Neyro o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda foydali hisoblanadi. Chunki bu davrda bolaning nerv tizimi faol rivojlanadi va yangi neyron aloqalar tez shakllanadi.

Neyro o‘yinlarning bolalar rivojlanishiga ta’siri

Bolalar bilan neyro o‘yinlardan muntazam foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- miya yarimsharlarining faoliyati sinxronlashadi;
- diqqat va xotira rivojlanadi;
- tafakkur jarayonlari faollashadi;
- nutq rivojlanadi;
- mayda va yirik motorika rivojlanadi;
- fazoviy tasavvurlar shakllanadi.

Bundan tashqari, neyro o‘yinlar bolalarning emotsional holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular stressga chidamlilikni oshiradi, asabiylik va qo‘zg‘aluvchanlikni kamaytiradi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, neyro o‘yinlar yordamida quyidagi muammolarni hal qilish mumkin:

- bolaning haddan tashqari faolligi yoki sustligi;
- diqqatni jamlay olmaslik;

- topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar;
- tez charchash;
- agressiv xatti-harakatlar.

Shu sababli neyro o‘yinlar pedagog va logopedlar faoliyatida samarali vosita hisoblanadi.

Miya faoliyatini oshiruvchi o‘yinlar

“Pufbol”

Bola va kattalar bir-biriga qarama-qarshi holda polga o‘tiradilar yoki yotadilar. Ularning har birining oldida qalam yoki ruchkalardan yasalgan kichik darvoza bo‘ladi. Shar o‘rnida g‘ijimlangan qog‘oz bo‘lagi yoki paxta ishlatilishi mumkin. Shar o‘yinchilar o‘rtasiga, har ikkisidan bir xil masofada qo‘yiladi. Buyruq berilgach, o‘yinchilar sharni puflab, uni raqibining darvozasiga kiritishga harakat qiladilar.

“Rekordlar”

Bola o‘zi bilan o‘zi musobaqalashadi. Bola sharni puflab, uni har safar imkon qadar uzoqroqqa surishga harakat qiladi. Har bir urinish natijasi, masalan, qalam bilan belgilab boriladi. Qo‘shimcha ravishda boladan nafas olishni navbat bilan bajarish so‘raladi: birinchi safar — burun orqali nafas olib, og‘iz orqali chiqarish; ikkinchi safar — og‘iz orqali nafas olib, og‘iz orqali chiqarish.

Eshitish diqqatini jamlash va ko‘rsatmani tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish

Bolaga ikkita son aytiladi yoki qog‘ozga yozib beriladi. So‘ngra kattalar boladan shu sonlar bilan ongida turli arifmetik amallarni bajarishni so‘raydi. Masalan: “Berilgan ikkita son: 36 va 48. Birinchi sonning birinchi raqamiga (3) ikkinchi sonning ikkinchi raqamini (8) qo‘sh va birinchi sonning ikkinchi raqamini (6) ayir. Javobni ayt (5).”

Amallar soni ko‘proq ham bo‘lishi mumkin va ular turlicha bo‘lishi mumkin. Qo‘shish va ayirishdan tashqari, ko‘paytirish va bo‘lish amallaridan ham foydalanish mumkin. Keyinchalik yaxshi tayyorlangan bolalar uchun boshlang‘ich sonlar sonini uchta qilib olish ham mumkin.

Diqqatni jamlash va taqsimlashni rivojlantirish

Ritm ostida o‘qish

Katta odam bolaga matnni o‘rtacha tezlikda o‘qib beradi va shu bilan birga stolni taqillatib turadi. Bola matnni qayta hikoya qilib berishi va nechta zarba bo‘lganini aytishi kerak. Matn bolaning tayyorgarlik darajasi va yoshiga qarab tanlanadi. Tavsiya etiladigan zarbalar soni 5 tadan 10 tagacha.

Qishloqda

Dildora yozda shahardan qishloqqa keldi. Hamma narsa unga notanish edi. U hovliga chiqdi. Ayvon oldida kichkina mushuk bolasi tog‘oradan ovqat yeb turardi.